

**Markaziy bank tomonidan “Umumjahon pul haftaligi”
(Global Money Week) doirasida moliyaviy matematika bo‘yicha maktab
o‘quvchilari uchun tashkil etilayotgan onlayn testni o‘tkazish
QOIDALARI**

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu hujjat “Umumjahon pul haftaligi” doirasida o‘tkazilayotgan “Moliyaviy matematika” onlayn testini (bundan buyon matnda Onlayn test deb yuritiladi) tashkil etish va o‘tkazishni tartibga soladi.

1.2. Onlayn test maktab o‘quvchilari e'tiborini moliyaviy savodxonlikka jalb etish maqsadida Markaziy Bank tomonidan intellektual bellashuvlarni tashkil etish orqali o‘tkaziladi.

1.3. Onlayn test khiso.uz onlayn platformasida o‘tkaziladi.

2. ONLAYN TESTNING MAQSADI

Onlayn testning maqsadi o‘quvchilarning moliyaviy savodxonlik, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va moliyaviy matematika sohalaridagi bilimlarini oshirish hisoblanadi. Shu orqali quyidagi masalalar o‘z yechimini topadi:

- umumta'lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida moliyaviy matematikaga oid bilimlarni targ‘ib etish;
- umumta'lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida moliyaviy matematika ko‘nikmalarini hosil qilish va ularni ommalashtirish.

3. ONLAYN TEST TASHKILOTCHILARI

Onlayn test tashkilotchilari:

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki – Moliyaviy savodxonlikni oshirish va bank mutaxassislarini qayta tayyorlash departamenti;
- khiso.uz veb-sayti platformasi orqali Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro onlayn-olimpiada maktabi.

4. ONLAYN TEST ISHTIROKCHILARI

Onlayn test umumta'lim muassasalarining 5-11 sinf o‘quvchilari uchun o‘tkaziladi.

5. ONLAYN TESTNI O‘TKAZISH TARTIBI

Ishtirokchilarni ro‘yxatga olish Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro onlayn-olimpiada maktabi veb-sayti orqali (www.khiso.uz) amalga oshiriladi.

Moliyaviy matematika bo‘yicha Onlayn test khiso.uz veb-sayti platformasida bo‘lib o‘tadi.

Moliyaviy matematika bo‘yicha onlayn savollar 20 ta elektron testni o‘z ichiga oladi va ularga javob berish uchun 1 soat vaqt beriladi.

Onlayn test uchun maksimal baho **100 ballni** tashkil etadi.

Onlayn test natijalariga ko‘ra har bir ishtirokchi maxsus elektron sertifikat bilan taqdirlanadi.

6. ONLAYN TESTNING TASHKILY QO‘MITASI

Onlayn testning tashkiliy qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro onlayn-olimpiada maktabi xodimlaridan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni amalga oshiradi:

- ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun havolani e‘lon qilish;
- baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- Onlayn test uchun savollar ishlab chiqish;
- Onlayn test savollarini khiso.uz elektron platformasiga joylashtirish;
- Onlayn testni o‘tkazish tartibi va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta‘minlash;
- Markaziy bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida Onlayn test natijalari bo‘yicha ma‘lumot berib borish.

Onlayn testning tashkiliy qo‘mitasi 4-bandda ko‘rsatilgan onlayn test shartlariga javob bermaydigan ishtirokchilarni ogohlantirishsiz musobaqadan chetlatish huquqiga ega.

7. ONLAYN TESTDA ISHTIROK ETISH UCHUN ROZILIK BERISH VA ISHTIROKCHILARDAN TALAB QILINADIGAN TASDIQLAR

Onlayn test davomida ishtirokchilar haqida olingan ma‘lumotlar tashkilotchi va uchinchi shaxslar tomonidan axborot va hisobot berish maqsadida, shuningdek Onlayn testning bosh maqsadini amalga oshirishda (tanlov jarayonlarini e‘lon qilib borish maqsadida khiso.uz veb-saytida, Markaziy bank ijtimoiy tarmoqlarida, moliyaviy savodxonlik bo‘yicha finlit.uz veb-saytidagi matbuot relizlarida) moliyaviy savodxonlik va moliyaviy xizmatlar iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilish masalalariga omma e‘tiborini jalb qilish uchun istalgan shaklda

foydalanilishi mumkin. Buning uchun ishtirokchiga qo‘shimcha haq to‘lanmaydi va undan ruxsat olinmaydi.

Onlayn testda ishtirok etish ishtirokchini Onlayn test Qoidalarida belgilangan shartlarni o‘qib chiqqanligini va ularga rozi ekanligini anglatadi.

8. ARIZALARNI TAQDIM ETISH

Onlayn testda ishtirok etmoqchi bo‘lganlar khiso.uz elektron platformasida ro‘yxatdan o‘tishlari zarur.

Qo‘shimcha savollar yuzasidan quyidagi telefon raqamiga murojaat qiling:
+99871 212-73-58.

Ro‘yxatdan o‘tish uchun zarur ma'lumotlar

F.I.Sh.	
Hudud, yashash manzili	
Telefon raqami	
O‘qish joyi (umumta'lim muassasasining raqami)	